



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 28-34 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### KICHIK BIZNES SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI

**Zarif Oripovich Axrorov**

i.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Samarqand filiali, e-mail: [z.akhroroff@gmail.com](mailto:z.akhroroff@gmail.com)



**Fozil Furqat o'g'li Davronov**

magistrant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Samarqand filiali

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy jarayonlardagi o'rni, ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirishning ahamiyati yoritilgan. Tadbirkorlik sub'ektlarining faolligini oshirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinib, bozor sharoitida xo'jalik yuritish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik faolligi, moliyaviy mexanizmlar, raqamli moliyaviy xizmatlar, soliq imtiyozlari, innovatsiya.

**Аннотация.** В данной статье раскрыта роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономических процессах Узбекистана, а также значение совершенствования финансовых механизмов в обеспечении их устойчивого развития. Проведен анализ внутренних и внешних факторов, влияющих на активность предпринимательских субъектов, и разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на повышение эффективности хозяйствования в рыночных условиях.

**Ключевые слова:** малый бизнес, предпринимательская активность, финансовые механизмы, цифровые финансовые услуги, налоговые льготы, инновации.

**Abstract.** This article examines the role of small business and private entrepreneurship in the economic processes of Uzbekistan and highlights the importance of improving financial mechanisms to ensure their sustainable development. The study analyzes internal and external factors affecting the activity of entrepreneurial entities and provides scientific proposals and practical recommendations aimed at increasing economic efficiency under market conditions.

**Keywords:** small business, entrepreneurial activity, financial mechanisms, digital financial services, tax incentives, innovation.

#### 1. Kirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday ustuvorlikni belgilashda mamlakatning tarixiy-iqtisodiy an'analari, rivojlangan davlatlar tajribasi, shuningdek kichik biznesning bozor sharoitidagi o'zgarishlarga tez moslasha olish qobiliyati muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bu sohaning aholini ish bilan

ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish va turmush sifatini yaxshilashdagi o'rni bilan bir qatorda, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qo'shadigan hissasi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kichik biznesning ulushi nafaqat umumiy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, balki iqtisodiy taraqqiyotning diversifikatsiyasi va bozor raqobatining shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kichik biznesning faol rivojlanishi ko'p ukldli iqtisodiyotni yaratish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqarish sohasiga jadal joriy etish uchun mustahkam asos bo'ladi. Shuningdek, mazkur sektor barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy bozorda raqobat muhitini kuchaytirishda strategik ahamiyatga ega.

Umuman olganda, kichik biznesning barqaror rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishda muhim tizimiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, ushbu sohani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning institutsional asoslarini takomillashtirish va bozor mexanizmlari bilan uyg'un ravishda rivojlantirish O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Biroq amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, ayrim sub'ektlarning bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq mos faoliyat yurita olmasligi, xo'jalik yuritish samaradorligining pastligi, iqtisodiy resurslardan foydalanishda yetarli tajriba va tashkiliy imkoniyatlarning chegaralanganligi bu sohaning to'liq salohiyat bilan rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Amaliyot shuni tasdiqladiki, yuqori samarali ish yurituvchi kichik biznes sub'ektlarigina iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, raqobat muhitini kuchaytirish va aholi daromadlarini oshirishda katta hissa qo'sha oladi.

Mazkur holat davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xususan, tadbirkorlik faolligini oshirishda mavjud muammolarni aniqlash, kichik biznesning iqtisodiy faolligini baholovchi mezonlarni ilmiy asosda tadqiq etish va bozor sharoitida faoliyat yuritish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlik faolligini iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida chuqur o'rganish esa mamlakatda barqaror va diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

## 2. Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik mohiyatiga doir turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lgani sababli, tadbirkorlikning rivojlanish bosqichlari ham bir xil emas, balki o'ziga xos va ko'p qirrali xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Mavjud nazariy qarashlar o'rtasidagi ayrim farqlar va ziddiyatlar tadbirkorlik fenomenining murakkab, dinamik va innovativ jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, tadbirkorlik rivojlanishining har bir bosqichi iqtisodiy sharoit, bozor munosabatlari va institutsional muhitga qarab shakllanadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ingliz iqtisodchisi A.Smitning fikricha, «tadbirkor - bu qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish va foyda olish maqsadidagi iqtisodiy tavakkalchidir, uning o'zi ishlab chiqarishni rejalashtiradi, tashkil qiladi va natijalarni o'zi tasarruf etadi» [1], - deb ta'kidlab bozor iqtisodiyotisharoitida

raqobat erkinligiga e'tibor beradi. J.B.Sey o'z iqtisodiy qarashlarida tadbirkorlikning asosiy vazifasi ishlab chiqarish omillarini oqilona birlashtirish va kombinatsiyalashtirish iborat ekanligiga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, «tadbirkor ishlab chiqarish doirasida boshqa insonlar faoliyatini tashkil etadi» [2].

Tadbirkorlik nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga taniqli avstriyalik iqtisodchi olim Y.Shumpeter katta hissa qo'shgan. Uning nazariyasiga ko'ra, «Tadbirkorlik – yaratuvchanlik, yangilikni izlash demakdir» [3]. U tadbirkorlikning vazifasi yangi ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi xom-ashyo turlarini o'zlashtirish va yangi bozorlarni topib, tovarlarni sotishdan iborat, deya izohlaydi.

Keltirilgan nazariy qarashlarda tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni yetarli darajada yoritilmagan. Bunda asosan tadbirkorlikning amal qilish belgilari, tadbirkorning vazifasi turli bozorlarda muvozanatli holatni ta'minlashdan iborat, deb hisoblangan.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan A.O'lmasov va M.Sharifxo'jaevlar, «Tadbirkorlik faqat pul topish emas, balki yaratuvchanlik faoliyati orqali daromad olish omilidir» [4], - deb ta'kidlab, shuningdek, tadbirkorlik shunchalik bir faoliyat emas, balki daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat bo'lib, agar u faollashmasa iqtisodiy o'sish ro'y bermasligini asoslaydilar va ular aynan tadbirkorlikning sifat jihatiga e'tiborni qaratadilar. Sh.Shodmonov «Tadbirkorlik faoliyati – shakli va sohasidan qat'iy nazar foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir», - deb ta'kidlaydi [5]. H.Abulqosimov esa tadbirkorlikni «Qonun yo'li bilan man qilinmagan... iqtisodiy unumli faoliyat turi» [6], - deb ta'riflaydi.

Tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini ochishda Q.Muftaydinov tomonidan berilgan ta'rif o'ziga xosligi va keng qamrovligi bilan ajralib turadi. «Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchi sifatida iqtisodiy maxovik bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste'mol talablarini e'tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi» [7], - degan g'oyani ilgari suradi.

Ushbu ta'rifda muallif boshqalardan farqli o'laroq tadbirkorlikka iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchi sifatida takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashi, uning samaradorligi esa turli mexanizmlardan foydalanish darajasiga bog'liq ekanligiga alohida urg'u bermoqda.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqot metodologiyasi tadbirkorlik va kichik biznes rivojlanishini o'rganishda tarixiy, iqtisodiy, normativ-huquqiy, qiyosiy va tizimli tahlil usullariga tayanadi. Tadqiqotda A.Smit, J.B.Sey, Y.Shumpeter kabi klassik iqtisodchilar nazariyalari, mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid amaldag'i qonunchilik tahlili asos bo'ldi. Iqtisodiy statistika, ekspert baholash, induksiya va deduksiya usullari orqali kichik biznes faolligini belgilaydigan omillar aniqlandi, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

### **4. Tahlil va natijalar**

Mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ustuvorlik berish jarayoni, avvalo, ushbu tuzilmalarning iqtisodiy tizimdagi bir qator amaliy afzalliklari bilan izohlanadi. Xususan, ular quyidagi ustunliklarga egadir:

- **iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi**, chunki kichik biznesning moslashuvchanligi va bozor talablariga tez reaksiyasi umumiy iqtisodiy faollikni oshiradi;
- **bozor tizimining egiluvchanligini ta'minlaydi**, tarkibiy o'zgarishlarni tezlashtiradi va davlat mulkini xususiylashtirish hamda iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtiradi;
- **raqobat muhitini shakllantiradi**, mahalliy va mintaqaviy bozorlarda yirik kompaniyalar monopoliyasini cheklaydi, shu orqali ishlab chiqarishni hududlar kesimida samarali tashkil etishga turtki bo'ladi;
- **fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantiradi**, chunki kichik korxonalar tajribaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va innovatsiyalarni tez joriy etish imkoniyatiga ega;
- **kapital tuzilmasining nisbatan soddaligi sababli mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi**, ya'ni mehnat birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish vositalari yirik korxonalarga nisbatan ko'proqdir;
- **davlat va mahalliy byudjetlar uchun barqaror moliyaviy tushum manbai vazifasini bajaradi**, soliq va to'lovlar orqali byudjet daromadlarini shakllantirishda katta ulushga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati faqat iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolmasdan, mehnat bozoridagi roli bilan ham ifodalanadi. Xususan:

- **kam kapital talab etuvchi yangi ish o'rinlarini tezda yarata oladi**; kichik korxonalarda har bir ish o'rni uchun sarflanadigan kapital hajmi yirik korxonalarga nisbatan ancha past bo'ladi;
- **iqtisodiy faol aholi uchun qulay mehnat muxiti yaratadi**, chunki kichik biznesda tashabbuskorlik, ijodiy imkoniyatlar va shaxsiy g'oyalarni amalga oshirish imkoniyatlari keng;
- **mehnat bandligining egiluvchan shakllarini tatbiq etish imkoniyati mavjud**: to'liq bo'lmagan ish kuni va haftasi, o'rindoshlik, masofaviy ishlash, sirpanuvchan ish grafigi kabi mexanizmlar bandlikka moslashuvchanlik beradi.

Tadbirkorlik iqtisodiyot sub'ektlarining mavjud iqtisodiy, tabiiy, mehnat va aqliy resurslardan samarali foydalanishi orqali yuqori pirovard natijalarga erishishini nazarda tutadi va bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning mohiyati iqtisodiyotda faollik, innovatsion yondashuv va risklarni o'z zimmasiga olish kabi belgilarda ifodalanadi.

Tadbirkorlikning iqtisodiy tabiati ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, u mulkchilik munosabatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tadbirkor o'z mulkidan kapital sifatida foydalanib, tijorat va investitsion faoliyatni amalga oshiradi. Ikkinchi tomondan, tadbirkorlik xo'jalikni oqilona yuritish, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarini to'g'ri qabul qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini ratsional tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Olib borgan ilmiy tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikning mohiyati ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi:

– birinchi yoʻnalishda, tadbirkor oʻz tasarrufidagi mulkdan kapital sifatida foydalanib, tijorat va investitsiya faoliyatini amalga oshiradi, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali boylik yaratadi va mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlaydi;

– ikkinchi yoʻnalishda, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi tadbirkorning tashkilotchilik qobiliyati, boshqaruv mahorati, bozor talabini oʻrganish darajasi va marketing faolligi bilan bevosita bogʻliq boʻladi. Daromad olish imkoni, uning miqdori va barqarorligi tovar va xizmatlarga boʻlgan talab, bozor konʻyunkturasi hamda tadbirkorning muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatiga asoslanadi.

Yuqoridagi tahlillarga tayanib, tadbirkorlikka quyidagi taʼrifni berish mumkin:

Tadbirkorlik — bu mulkchilikning turli shakllari va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda daromad orttirishga qaratilgan tashabbusli iqtisodiy faoliyat boʻlib, u ishlab chiqarish omillarining bozor sharoitida oʻzaro oqilona aloqadorligini taʼminlash orqali xoʻjalik yuritish va boshqaruvning iqtisodiy mexanizmlarini amalga oshiradi.

Tadbirkorlikning rivojlanishi muayyan davlat yoki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidan uzviy ravishda kelib chiqadi. Ushbu qonuniyat Oʻzbekistonning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich oʻtish davrida ayniqsa yaqqol namoyon boʻldi. Bunda, bir tomondan, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes, dehqon va fermer xoʻjaliklari, qoʻshma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari kabi mulkchilik shakllarining ustuvor rivojlanishi talab etilmoqda. Ikkinchi tomondan, tadbirkorlik faoliyatini bozor qonunlari asosida yuritish, bozor konʻyunkturasini chuqur oʻrganish va xoʻjalikni oqilona boshqarish kabi masalalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Aholining turmush farovonligini oshirish, ichki bozorni isteʼmol tovarlari bilan taʼminlash, xizmat koʻrsatish tarmoqlarini kengaytirishda kichik biznesning roli ortib bormoqda. Tadbirkorlikning rivojlanishi moddiy ishlab chiqarishni kuchaytirish va xizmatlar soni hamda sifatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bois XXI asr sharoitida tadbirkorlik subʼektlarining faqatgina son jihatidan emas, balki sifat jihatidan ham oʻsishiga eʼtibor qaratish muhim hisoblanadi. Tadbirkorning bilim, malakalari, bozorni oʻrganish darajasi va boshqaruv qobiliyati — uning faolligini belgilaydigan asosiy omillardir.

Tadbirkorlik faolligi muayyan maqsadga yoʻnaltirilgan iqtisodiy harakat boʻlib, obʼektiv va subʼektiv omillar oʻrtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Korxonada ishchi kuchining barqarorligi, kadrlarning ishda saqlanishi va samaradorligi ham tadbirkorlik faolligi darajasiga bevosita bogʻliq. Bozor talablaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish tuzilmasini doimiy ravishda optimallashtirish – bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biridir.

Globalashuv sharoitida kichik biznes subʼektlari oldida raqobat kurashining yangi shakllari va yuqori texnologiyalarga asoslangan biznes modellarini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Tovlar va xizmatlar bozorining tez oʻzgarishi tadbirkorlardan yuqori darajadagi tashabbuskorlik, innovatsion yechimlar, samarali boshqaruv va moslashuvchan strategiya talab qiladi. Shu sababli kichik biznes subʼektlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularning ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish salohiyatini oshirish bugungi kunning eng muhim iqtisodiy vazifalaridan biri sanaladi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini soddalashtirish maqsadida ularni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ishtirok etuvchi tashkilotlar soni keskin qisqartirildi. Bu orqali barcha kerakli kelishuvlar va tartibotlar faqat birgina vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishi ta'minlandi. Hozirgi kunda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish ularning arizasiga muvofiq namunaviy ta'sis hujjatlari asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bu jarayonning tezkorligi va shaffofligi sezilarli darajada oshdi.

### 5. Xulosa va takliflar

Hozirgi sharoitda tadbirkorlik faoliyatini samarali rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlardan oqilona foydalanishni to'g'ri tashkil etish boshqaruvchi menejerlar zimmasidagi eng muhim vazifalardan biridir. Zamonaviy boshqaruv nazariyasi shundan dalolat beradiki, boshqaruvning samaradorligi faqat ish jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan emas, balki motivatsiyaviy omillardan maqsadli foydalanish orqali ta'minlanadi. Bu esa tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini muhofaza qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlantirishni talab etadi.

Zamonaviy boshqaruvni takomillashtirish jarayonida quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

1. Tadbirkorlik sub'ektlarini turli xatarlardan himoya qilish mexanizmini rivojlantirish. Tadbirkorlikda yuzaga keladigan iqtisodiy xavflarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish menejerning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Samarali risk-menejment biznes barqarorligini ta'minlaydi va xatarlarning salbiy ta'sirini cheklaydi.

2. Tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish. Davlat ro'yxatiga olish uchun talab etiladigan hujjatlarni rasmiylashtirishda yuzaga keladigan to'siqlarni bartaraf etish maqsadida tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy bilimlarini oshirish zarur. Bu ularga ortiqcha byurokratik muammolarsiz faoliyat yuritish imkonini beradi.

3. Tadbirkorlik bo'yicha kadrlar tayyorlashni rivojlantirish. Ta'lim muassasalarida soha mutaxassislarini zamonaviy talablar asosida tayyorlash, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, innovatsion boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshiradi.

4. Tadbirkorlik sub'ektlari uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashning differensial tizimini joriy etish. Turli toifadagi tadbirkorlar (startaplar, mikrofirmalar, kichik va o'rta biznes) uchun alohida moliyaviy mexanizmlar va preferensiyalar ishlab chiqish: startaplar uchun grant va venchur mablag'larini kengaytirish; mikrobiznes uchun imtiyozli mikrokreditlar paketini yaratish; kichik biznes uchun past stavkali investitsiya kreditlarini taklif qilish; eksportga yo'naltirilgan korxonalarga valyuta xatarlarini xedjirlash mexanizmlarini joriy etish. Bu differensial yondashuv har bir tadbirkorlik segmentining ehtiyojlariga mos keladi va ularning moliyaviy imkoniyatlarini bir maromda rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Tadbirkorlik sub'ektlari uchun raqamli moliyaviy xizmatlar ekotizimini rivojlantirish. Raqamli soliq hisoboti, onlayn buxgalteriya va avtomatlashtirilgan moliyaviy tahlil platformalarini keng joriy etish; banklar va fintex kompaniyalari o'rtasida «bir darcha» moliyaviy xizmatlar integratsiyasi orqali kredit olishni soddalashtirish; bepul yoki arzon narxda moliyaviy savodxonlik platformalarini ishlab chiqish. Bu orqali

tadbirkorlar moliyaviy operatsiyalarni tez va shaffof amalga oshira oladi, xatarlarni minimallashtirish imkoniga ega bo'ladi.

6. Soliq imtiyozlarini samarali taqsimlash tizimini takomillashtirish. Soliq imtiyozlarini berganda korxonalarining real natijalari (ish o'rni yaratish, eksport hajmi, innovatsiya darajasi)ni asosiy mezon sifatida belgilash; sohaga mos ravishda vaqtinchalik (3–5 yillik) maqsadli imtiyozlar joriy qilish; soliq imtiyozlarini raqamli monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqish. Bu mexanizm byudjet barqarorligini saqlagan holda, haqiqatan samarali ishlayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantiradi.

7. Xususiy investitsiyalarni jalb qilishda kafolat va sug'urta mexanizmlarini kuchaytirish. Davlat-xususiy sheriklik (DHSh) loyihalarida kichik biznes ishtirokini kengaytirish; yangi tashkil etilgan korxonalar uchun risk sug'urtasi va investitsion kafolatlar tizimini joriy etish; eksport qiluvchi korxonalar uchun eksport-kredit agentligi orqali moliyaviy kafolatlar berish. Bu takliflar xatarlar ko'p bo'lgan sohalarda tadbirkorlik rivojiga turtki beruvchi muhim omil bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народов. - М.: 1966. - С. 174, 176.
2. Сэй Ж.Б. Троктан политической экономии. – М.: Экономика. 1980. -С. 17.
3. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: 1982. – С. 48.
4. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: Меҳнат, 1995. –Б. 192.
5. Шодмонов Ш., Фофуров У. Иқтисодиёт назарияси. - Т.2007.-Б.137.
6. Абулқосимов П., Қулматов А. Тадбиркорлик сермашаққат фаолият.//Иқтисод ва ҳисобот. –1997. № 9. –Б.9.
7. Муфтайдинов Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. - Тошкент, 2004. -Б. 18.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

